QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

https://doi.org/10.70728/c.series.pedm.v08.i10.004

UDK: 330.34:502.131.1

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI VA UNING DOLZARBLIGI

Gaybullayeva Madina Furqatovna
Farg`ona davlat universiteti Ekologiya, yashil transformatsiya va tuproqshunoslik kafedrasi katta o’qituvchisi (PhD)
gaybullayeva1988@mail.ru
ORSID ID https://orcid.org/0009-0007-5900-0661

Annotatsiya. Mazkur maqolada barqaror rivojlanish maqsadlarining mazmun-mohiyati, ularning jahon iqtisodiyoti va milliy taraqqiyotdagi ahamiyati hamda bugungi globallashuv sharoitida dolzarbligi ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ochib berilgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2030-yilgacha belgilangan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadining asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, global maqsadlar, iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy farovonlik, ekologik xavfsizlik, inson kapitali, yashil iqtisodiyot, innovatsiya, kambag‘allikni qisqartirish, 2030-yil kun tartibi.

Аннотация. В статье исследуются сущность и содержание целей устойчивого развития, их значение для мировой экономики и национального развития, а также актуальность в условиях глобализации. Раскрывается взаимосвязь экономических, социальных и экологических составляющих устойчивого развития. Анализируются основные направления 17 Целей устойчивого развития, определённых Организацией Объединённых Наций до 2030 года.

Ключевые слова: устойчивое развитие, глобальные цели, экономическое развитие, социальное благополучие, экологическая безопасность, человеческий капитал, зелёная экономика, инновации, сокращение бедности, Повестка дня до 2030 года.

Abstract. This article examines the essence and content of the Sustainable Development Goals, their significance for the global economy and national development, and their relevance in the context of globalization. It explores the interrelationship between the economic, social and environmental dimensions of sustainable development. The main areas of the 17 Sustainable Development Goals established by the United Nations for the period up to 2030 are analyzed.

Keywords: sustainable development, global goals, economic development, social well-being, environmental security, human capital, green economy, innovation, poverty reduction, 2030 Agenda.

KIRISH

Barqaror rivojlanish tushunchasi bugungi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan birga kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini cheklamaslik tamoyiliga asoslanadi. Ushbu yondashuv rivojlanishni faqat yalpi ichki mahsulotning o‘sishi yoki ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Aksincha, iqtisodiy o‘sish natijalari aholi turmush darajasini yaxshilashi, tabiiy resurslarni asrashi va ekologik xavfsizlikni ta’minlashi zarur.

2015-yil sentabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo davlatlar tomonidan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi” qabul qilindi. Ushbu hujjat doirasida 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadi va 169 ta vazifa belgilandi. Mazkur maqsadlar qashshoqlikka barham berish, ochlikni qisqartirish, sifatli ta’lim va tibbiy xizmatni ta’minlash, gender tengligiga erishish, ekologik muvozanatni saqlash, munosib mehnat va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish kabi keng qamrovli yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi [1].

Barqaror rivojlanish maqsadlarining muhim jihati shundaki, ular alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida qaraladi. Masalan, sifatli ta’lim inson kapitalini rivojlantiradi, inson kapitalining o‘sishi esa mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Xuddi shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta’minlash aholi salomatligini yaxshilash va kelajakdagi iqtisodiy yo‘qotishlarning oldini olishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston uchun ham barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish alohida ahamiyatga ega. Chunki mamlakatda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, kambag‘allikni qisqartirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, suv resurslaridan samarali foydalanish hamda ekologik muammolarni hal etish ustuvor vazifalar hisoblanadi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy o‘sish va tabiiy muhit o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan ilmiy qarashlar asosida shakllangan. Mazkur konsepsiyaning xalqaro miqyosda keng e’tirof etilishida 1987-yilda BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha Jahon komissiyasi tomonidan tayyorlangan “Bizning umumiy kelajagimiz” nomli ma’ruza muhim o‘rin tutadi. Ushbu hujjatda barqaror rivojlanishning avlodlararo mas’uliyat tamoyili asoslab berilgan [2].

Keyinchalik barqaror rivojlanish masalalari xalqaro konferensiyalar, deklaratsiyalar va strategik hujjatlarda yanada rivojlantirildi. Xususan, 1992-yilda Rio-de-Janeyro shahrida o‘tkazilgan BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi iqtisodiy taraqqiyot va ekologik muhofazani birgalikda olib borish zarurligini xalqaro siyosat darajasiga olib chiqdi. Ushbu yo‘nalishning o‘zaro uyg‘unligi barqaror rivojlanishning asosiy sharti hisoblanadi. Iqtisodiy o‘sish ekologik zararlar hisobiga amalga oshirilsa yoki ijtimoiy tengsizlik kuchaysa, bunday rivojlanishni uzoq muddatli va barqaror deb baholash qiyin. Shu sababli zamonaviy iqtisodiy siyosatda yalpi ichki mahsulot, investitsiya hajmi va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari

bilan bir qatorda inson taraqqiyoti, ekologik holat va resurslardan foydalanish samaradorligini ham baholash zarur.

BMTning 2030-yilgacha mo‘ljallangan kun tartibi xalqaro hamjamiyatning umumiy rivojlanish strategiyasi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi dunyoda kambag‘allik va tengsizlikni kamaytirish, inson huquqlarini ta’minlash, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish hamda sayyoramiz tabiiy boyliklarini kelajak avlodlar uchun saqlab qolishdan iborat. Mazkur kun tartibida quyidagi 17 ta maqsad belgilangan: kambag‘allikka barham berish, ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini ta’minlash, sifatli ta’limni rivojlantirish, Gender tengligiga erishish, toza suv va sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta’minlash, arzon, ishonchli va toza energiyadan foydalanishni kengaytirish, munosib mehnat va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, sanoat, innovatsiya va infratuzilmani rivojlantirish, tengsizlikni qisqartirish, barqaror shaharlar va aholi punktlarini shakllantirish, mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarishni rivojlantirish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, dengiz va okean ekotizimlarini muhofaza qilish, quruqlik ekotizimlarini himoya qilish, tinchlik, adolat va samarali institutlarni rivojlantirish, barqaror rivojlanish yo‘lida global hamkorlikni mustahkamlash [1].

Natijalar va muhokama

Hozirgi davrda barqaror rivojlanish maqsadlarining dolzarbligi jahon miqyosida yuz berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o‘zgarishlar bilan belgilanadi. Global iqtisodiy beqarorlik, oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar cheklanganligi va aholi daromadlari o‘rtasidagi tafovutlarning mavjudligi barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotga keng tatbiq etishni talab qilmoqda.


Birinchi navbatda, kambag‘allikni qisqartirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Kambag‘allik faqat daromadlarning pastligi bilan belgilanmaydi. U sifatli ta’lim, tibbiy xizmat, uy-joy, toza ichimlik suvi va munosib ish bilan ta’minlanish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan ham bog‘liq. Shu sababli kambag‘allikka qarshi kurashish iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishni ham talab etadi.

Ikkinchidan, inson kapitalini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim va sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy natijalarni shakllantiradi. Malakali, sog‘lom va zamonaviy bilimlarga ega inson resurslari innovatsion iqtisodiyotning asosiy omili hisoblanadi.

Uchinchidan, ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalasi tobora muhimlashmoqda. Iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish, suv tanqisligi, tuproq degradatsiyasi va biologik xilma-xillikning kamayishi nafaqat atrof-muhitga, balki iqtisodiy faoliyatga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli yashil iqtisodiyot tamoyillarini ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalariga tatbiq etish zarur.

To‘rtinchidan, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va raqamli texnologiyalarni joriy etish mamlakatlarning global raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Beshinchidan, samarali davlat boshqaruvi va qonun ustuvorligi barqaror taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi. Davlat institutlarining ochiqligi, hisobdorligi va faoliyat samaradorligi investitsion muhitni yaxshilash, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish hamda jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga yordam beradi. Shunday qilib, barqaror rivojlanish maqsadlarining dolzarbligi ularning faqat ekologik muammolarni hal qilishga emas, balki jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga kompleks ta’sir ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi.



O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasi bilan chambarchas bog‘liq. 2015-yilda BMT tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha bo‘lgan kun tartibini O‘zbekiston ham qo‘llab-quvvatlagan. Keyingi yillarda mazkur maqsadlarni milliy sharoitga moslashtirish, tegishli vazifalar va indikatorlarni belgilash bo‘yicha institutsional choralar amalga oshirildi [3].

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi 841-son qarori barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishning tashkiliy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Milliy maqsadlar ijrosini monitoring qilish, idoralararo hamkorlikni ta’minlash va statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish mexanizmlari belgilandi [4].

Mamlakatda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiy o‘sish, aholi farovonligini oshirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, ekologik muvozanatni ta’minlash va samarali davlat boshqaruvini shakllantirishga qaratilgan vazifalar belgilangan. Ushbu yo‘nalishlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan mazmunan uyg‘unlashadi.O‘zbekiston sharoitida barqaror rivojlanishni ta’minlashning quyidagi ustuvor yo‘nalishlarini ajratish mumkin. Iqtisodiy o‘sishning inklyuziv xususiyatini kuchaytirish. Bunda iqtisodiy rivojlanish natijalaridan aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar manfaatdor bo‘lishi lozim. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish. Sifatli ta’lim, zamonaviy kasb-

hunar ko‘nikmalari, ilmiy tadqiqotlar va sog‘liqni saqlash xizmatlarini rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotning uzoq muddatli asosini yaratadi. Ayniqsa, yoshlarning zamonaviy mehnat bozoriga mos bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratish zarur. Suv va yer resurslaridan samarali foydalanish. O‘zbekistonning tabiiy-iqlim sharoitida suv resurslarini boshqarish, sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va cho‘llanishning oldini olish muhim ahamiyatga ega.

Barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish hamda yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish, har bir hududning tabiiy, iqtisodiy va demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda mahalliy barqaror rivojlanish dasturlarini takomillashtirish, ta’lim tizimida ekologik savodxonlik, raqamli ko‘nikmalar va zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholovchi iqtisodiy va ekologik indikatorlar tizimini takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarish va davlat boshqaruvi amaliyotiga keng joriy etish, barqaror rivojlanish maqsadlari ijrosi yuzasidan ochiq ma’lumotlar va jamoatchilik monitoringi imkoniyatlarini kengaytirish. O‘rganilgan ilmiy-nazariy manbalar hamda barqaror rivojlanish maqsadlarining mazmuni tahlili natijasida ushbu konsepsiyaning mamlakatlar taraqqiyotidagi ahamiyati bir nechta asosiy jihatlar orqali namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Birinchidan, barqaror rivojlanish iqtisodiy o‘sishning sifat jihatlarini kuchaytiradi. Bunda iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda yangi ish o‘rinlari, aholining daromadlari va resurslardan foydalanish samaradorligi ham muhim mezon sifatida qaraladi.

Ikkinchidan, mazkur maqsadlar ijtimoiy tenglik va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, gender tengligi va ijtimoiy himoya tizimining rivojlanishi jamiyatning umumiy taraqqiyot salohiyatini oshiradi.

Uchinchidan, ekologik barqarorlik iqtisodiy rivojlanishning uzluksizligini ta’minlaydi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavflarni kamaytirish kelajakdagi iqtisodiy yo‘qotishlarning oldini olishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, barqaror rivojlanish maqsadlari davlat boshqaruvida strategik rejalashtirish, natijadorlikni baholash va idoralararo hamkorlikni takomillashtirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotning ilmiy-amaliy natijasi sifatida barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish samaradorligini uchta o‘zaro bog‘liq mezon asosida baholash yondashuvi taklif etiladi: iqtisodiy natijadorlik, ijtimoiy farovonlik va ekologik xavfsizlik. Ushbu mezonlar asosida hududiy va tarmoq dasturlarining natijalarini kompleks baholash mumkin.

Shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlari ijrosini monitoring qilishda ko‘rsatkichlarning faqat miqdoriy o‘zgarishiga emas, balki ularning sifat jihatidan yaxshilanishiga ham e’tibor qaratish zarurligi asoslandi.

Xulosa. Barqaror rivojlanish maqsadlarining bugungi dolzarbligi kambag‘allik, ijtimoiy tengsizlik, ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslar taqchilligining kuchayishi bilan belgilanadi. O‘zbekiston sharoitida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirish, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va samarali davlat boshqaruvini shakllantirish bilan uzviy bog‘liq. Barqaror

rivojlanish natijadorligini baholashda yalpi ichki mahsulot o‘sishi bilan cheklanmasdan, aholining turmush darajasi, bandlik, ta’lim sifati, ekologik holat va tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini ham hisobga olish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. A/RES/70/1. New York, 2015.

2. World Commission on Environment and Development. Our Common Future. Oxford University Press, 1987.

3. United Nations. The Sustainable Development Goals Report 2025. New York: United Nations, 2025.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi 841-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

5. United Nations Environment Programme. Sustainable Development Goals: Frequently Asked Questions. UNEP.

6. Madina, G., & Adakhamjon, A. (2021). Conservation of flora. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 195-198.

7. Gaybullaeva, M. F. (2022). Influence of soil and climatic conditions of the experiment area in Fergana region on the weight of pea pods. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(6), 89-92.

8. Gaybullaeva, M. F. (2021). The Role Of Biomass In Saving Natural Resources. The American Journal of Horticulture and Floriculture Research, 3(02), 1-6.